

**Bedada beda barg filchasiga qarshi kimyoviy preparatlarning biologik samaradorligi.
(Samarqand viloyati, Pastdarg'om tumani, 2023 yil)**

№	Tajriba variantlari	Preparatning sarf me'yori kg, l/ga	Hasharotlarning bitta daraxtdagi o'rtacha soni, dona				Samaradorlik %, kunlar bo'yicha		
			Ishlov- gacha	Ishlovdan keyin kunlar bo'yicha			3	7	14
				3	7	14			
1.	KARATE ZEON 5% sus.k.	0,15	15,0	5,6	5,1	5,7	82,8	85,3	81,1
2.	SUPERKILL 25% em.k.	0,24	15,7	5,9	4,8	5,2	81,8	86,2	85,8
3.	Koragen 20 ks (Xlorantraniliprol 200 g/l) (Andoza)	0,2	16,2	6,4	5,5	5,6	80,3	84,2	84,4
4.	Nazorat (ishlov o'tkazilmagan)	-	16,0	22,5	24,8	33,3	-	-	-

SUPERKILL 25% em.k. preratning 0,24 l/ga qo'llanilgan variantida shunga mos ravishda 3-kuni 81,8%, 7-kuni 86,2% va 14-kuni 85,8% ni tashkil qilgan bo'lsa, Koragen 20 ks (Xlorantraniliprol 200 g/l) (Andoza) preparati 0,2 l/ga qo'llanilgan variantida biologik samaradorlik 3-kuni 80,3% ni, 7-kuni 84,2% ni va 14-kuni 84,4% ni tashkil qildi.

Xulosalar. Tajriba natijalari asosida shunday xulosa qilish

mumkin, olmada Olma mevxox'riga qarshi qarshi SUPERKILL 25% em.k. preparatini gektariga 0,24 l/ga me'yorida o'z vaqtida va sifatli qo'llaydigan bo'lsak, biologik samaradorlik ham yuqori bo'ladi.

SUPERKILL 25% em.k. preparatini 0,24 l/ga me'yorida bedaba Beda barg filchasiga qarshi qo'llanilganda fitotoksiklik xususiyatlari kuzatilmadi.

ADABIYOTLAR:

1. Bayramov M. Yu., Ismailov M.G. Nekotoriye osobennosti biologii fitonomusa. Zashita rasteniy.-1970.-№7-C. 43.
2. M.A. Варламов. Вредител. и болез.лущент. и борбы с ними в условиях Сред. Азии. М. 1950.-с. 605-609.
3. Д. В. Васкин. Резуляция числен.вредн. и полезных насекомых на луцерн. Защита растен. 1983. №12-с. 8-10.
4. Insektitsid, akaritsid, biologik aktiv moddalar va fungitsidlarni sinash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar. Sh.T.Xo'jayev tahlili ostida.-Toshkent, 2004.-102 b.
5. Xo'jayev Sh.T., Sulaymonov O.A. Umumiy va qishloq xo'jalik entomologiyasi hamda uyg'unlashgan himoya qilish tizimining asoslari. Toshkent: "Yangi nashr" nashriyoti, 2019.- 376 b.

UO'T: 633.11.631.52.631.8

URUG'LIK DONINING HOSIL ELEMENTLARIGA KUZGI BUG'DOY NAVLARINI ILDIZIDAN TASHQARI OZIQLANTIRISHNING KEYINGI REPRODUKSIYADAGI TA'SIRI

Toshkentboyeva Feruza Ibragimovna, qishloq xo'jalik fanlari falsafa doktori (PhD),
Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti.

Annotatsiya. Qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda tuproq-iqlim sharoitlari, navlarning biologik xususiyatlarini hisobga olish yuqori sifatli hosil olishni ta'minlaydi. Hosildorlik esa hosil elementlarini shakllanishiga bog'liq. Ushbu maqolada Samarqand viloyatining sug'oriladigan bo'z tuproqlari sharoitida mineral o'g'itlarga, ildizidan tashqari karbamid va mikroo'g'itlar bilan oziqlantirishning kuzgi bug'doy navlarining hosil elementlaridan-mahsuldor poyalar soni, boshqda boshqachalar va don soniga keyingi reproduksiya-dagi ta'siri bo'yicha natijalar keltirilgan. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Davlat reestriga kiritilgan Forboma navidan foydalanildi. Tajribada $N_{180}P_{90}K_{60}$ kg/ga me'yorda mineral o'g'itlarga karbamidning turli konsentratsiyadagi suspenziyalari bilan oziqlantirilganda mineral o'g'itlar bilan oziqlantirilgan variantga nisbatan mahsuldor poyalar soni 0,1 donaga, boshqda boshqachalar soni 0,4-0,9 va don soni 1,1-2,9 donaga yuqori bo'ldi. Kuzgi bug'doyning boshqqlash fazasida ildizidan tashqari karbamid va mikroo'g'itlar bilan oziqlantirish ta'sirida qo'shimcha mahsuldor poyalar 0,3 dona, 1,0-2,8 dona boshqachalar hamda 2,8-5,2 dona donlar hosil bo'ldi. Bunday natijalar oziqlantirish me'yorlari va usullarini to'g'ri yo'lga qo'yish nafaqat tadbir qo'llanilgan yili balki navlarning urg'lik sifatlariga ta'sir etuvchi omillardan biri ekanligidan dalolat beradi.

Kalit so'zlar: Farboma, mineral o'g'itlar, suspenziya, keyingi reproduksiya, hosil elementlari.

Аннотация. Учет почвенно-климатических условий и биологических особенностей сортов при выращивании сельскохозяйственных культур обеспечивает получение качественного урожая. Урожайность зависит от формирования элементов урожая. В данной статье в условиях орошаемых сероземов Самаркандской области

изучено влияние подкормки минеральными удобрениями, внекорневым мочевиной и микроудобрениями на элементы урожайности сортов озимой пшеницы - количество продуктивных стеблей, количество колосков в колосах и количества зерен при последующем воспроизводстве приведены результаты по серии. В исследованиях использовался сорт Форбома, внесенный в Госреестр Республики Узбекистан. В опыте при внесении $N_{180}P_{90}K_{60}$ кг/га на минеральные удобрения с суспензиями разной концентрации мочевины по сравнению с вариантом на минеральных удобрениях количество продуктивных стеблей составило 0,1 количество колосков в колосе - 0,4-0,9, а количество зерен было выше на 1,1-2,9 единиц. В фазу колошения озимой пшеницы под влиянием подкормки мочевиной и микроудобрениями образовалось дополнительно продуктивных стеблей 0,3 ед., колосьев 1,0-2,8 ед. и зерен 2,8-5,2 ед. Такие результаты свидетельствуют о том, что правильное выполнение норм и способов кормления является одним из факторов, влияющих не только на год проведения мероприятия, но и на акцентные качества сортов.

Ключевые слова: Форбома, минеральные удобрения, суспензия, дальнейшее размножение, элементы урожая.

Abstract. Taking into account soil, climatic conditions and biological characteristics of varieties when growing crops ensures obtaining a high-quality harvest. Productivity depends on the formation of crop elements. In this article, under the conditions of irrigated gray soils of the Samarkand region, the effect of fertilizing with mineral fertilizers, foliar urea and microfertilizers on the elements of the yield of winter wheat varieties, the number of productive stems, the number of spikelets per ear and the number of grains during subsequent reproduction are studied. The results for the series are presented. The research used the Forboma variety, included in the State Register of the Republic of Uzbekistan. In the experiment, when $N_{180}P_{90}K_{60}$ kg/ha was applied to mineral fertilizers with suspensions of different concentrations of urea, compared to the variant on mineral fertilizers, the number of productive stems was 0.1, the number of spikelets per ear was 0.4-0.9, and the number of grains was higher by 1.1-2.9 units. During the heading phase of winter wheat, under the influence of fertilizing with urea and microfertilizers, an additional 0.3 units of productive stems and 1.0-2.8 units of ears were formed and grains 2.8-5.2 units. Such results indicate that the correct implementation of feeding standards and methods is one of the factors influencing not only the year of the event, but also the accent qualities of the varieties.

Key words: Forboma, mineral fertilizers, suspension, further propagation, harvest elements.

Kirish. Qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirishda urug'chilik muhim ahamiyatga ega bo'lib, sifatli urug'lardan ekish uchun foydalanish natijasida ekinlarning hosildorligini oshirish imkoniyati yaratiladi. Urug'larning sifati esa o'z navbatida ekin navining potentsial imkoniyatlariga hamda uni yetishtirishda foydalanilgan texnologiyaga bevosita bog'liq.

Ba'zi adabiyotlarda o'simliklar urug'ining sifat ko'rsatkichlariga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omil ona o'simlikda urug' shakllanayotgan vaqt deb keltirilgan [3].

Tadqiqotlarda mineral o'g'itlarga qo'shimcha ildizidan tashqari karbamid va mikroo'g'itlar bilan oziqlantirish kuzgi yumshoq bug'doy navlarining ekinboplik sifatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan [4,5,6].

Urug' rivojlanishdan to'xtab, ona o'simligidan kerakli zaxira oziq moddalarni olgandan so'ng undan ajratiladi va o'zi mustaqil o'sa boshlaydi. Ona o'simliklarning yaxshi rivojlanishi, sog'lomligi, baquvvatligi yuqori sifatli urug' paydo bo'lishiga asos bo'ladi. Onalik o'simliklardagi har xil urug'larning joylashishi va rivojlanishi, urug'larning har xil oziqlanish va onalik o'simlikni urug' rivojlanishiga har xil ta'sir ko'rsatishi natijasida kelib chiqadi [7].

Bo'riyev.X.Ch urug' sifatini oshirishda oziq moddalarning donning shakllanishiga, rivojlanishiga, yetilishiga urug'ning sifatiga ta'sirini o'rganish, ularning agroteknikasigi yuksak saviyada o'tkazish, yig'ishtirish, saqlash kabi muhim tadbirlarni to'g'ri o'tkazish urug'chilikni rivojlantirishga olib kelishi to'g'risida o'z ilmiy ishlarida keltirib o'tgan [2].

Qishloq xo'jalik ekinlari seleksiyasining yo'nalishlari belgilanganda navlariga qo'yiladigan asosiy talablaridan biri-hosildorlik hisoblanadi [1]. Hosildorlik esa asosiy hosil elementlariga qarab belgilanadi.

Adabiyotlar sharhida keltirilgan ma'lumotlar kuzgi bug'doyini, ayniqsa yangi yaratilgan navlarning biologik xususiyatlarini hisobga olgan holda o'simliklarni asosiy oziqlantirishga qo'shimcha ravishda ildizidan tashqari oziqlantirishning nafaqat

tadbirning qo'llanilgan yili, balki ekinning urug'lik sifatlariga ta'sirini o'rganish sohaning dolzarb masalalaridan biri ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqot materiallari va uslubi. Tadqiqotlar 2021-2023-yillar Samarqand viloyati Jomboy tumani Farboma Selekt fermer xo'jaligida olib borildi. Tajriba dalasining tuproqlari sug'oriladigan o'tloqi bo'z tuproqlari bo'lib, sizot suvlari chuqurligi 3-3,5 m, mexanik tarkibi o'rta-qumoq.

Tadqiqot obyekti bo'lib kuzgi yumshoq bug'doyning O'zbekiston Respublikasi davlat reestriga kiritilgan Farboma navi xizmat qildi. Urug'lik paykallarda qo'llanilgan tashkiliy va agroteknik tadbirlar, o'simliklarning o'sishi, rivojlanishi, biometrik ko'rsatkichlari tadqiqot predmeti bo'lib xizmat qildi.

Fenologik kuzatish va biometrik o'lchovlar "Методика Государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур" (М.1989), O'zPITIning "Dala tajribalarini o'tkazish uslublari" (T.,2007) uslubiy qo'llanmalari, "Методика определения экономической эффективности использования в сельском хозяйстве результатов научно-исследовательских и опытно-конструкторских работ, новой техники, изобретений и рационализаторских предложений", kabi uslubiy qo'llanmalar asosida olib borildi, ma'lumotlarning statistik tahlili "Методика полевого опыта" (Б.А.Доспехов, 1985), Microsoft Exce1 dasturi yordamida amalga oshirildi.

Tadqiqotlarda mineral o'g'itlar bilan $N_{180}P_{90}K_{60}$ kg/ga me'yorda hamda unga qo'shimcha karbamidning 10, 15 va 20 kg/ga eritmaları, mikroo'g'itlardan SEAWEEED Ca+Mg, MIKROMIX va MONBAND NPK 20-20-20+TE suspenziyalari bilan oziqlantirishning kuzgi yumshoq bug'doyning Farboma navi urug'lik sifatlariga ta'sirini o'rganish maqsadida, ildizidan tashqari oziqlantirilgan maydonlardan olingan keyingi reproduksiya urug'lar ekildi va ularning hosil elementlaridan mahsuldor poyalar soni, boshqda boshqachalar va ulardagi don soni o'rganildi.

Ekish oktyabr oyining ikkinchi o'n kunligida ekish me'yori 5 mln/ga urug' hisobida o'tkazildi. Paykallar bir yarus to'rt qaytariqda joylashtirildi, hisobli maydon 50 m².

Tadqiqotlarda o'g'it me'yorlari nazorat, Andoza-N₁₈₀P₉₀K₆₀, N₁₈₀P₉₀K₆₀+karbamid (10 kg/ga), N₁₈₀P₉₀K₆₀+karbamid (15 kg/ga), N₁₈₀P₉₀K₆₀+karbamid (20 kg/ga), N₁₈₀P₉₀K₆₀+ SEAWEEED Ca+Mg, N₁₈₀P₉₀K₆₀+ MIKROMIX, N₁₈₀P₉₀K₆₀+ MONBAND NPK 20-20-20+TE hamda N₁₈₀P₉₀K₆₀+karbamid (15 kg/ga)+ SEAWEEED Ca+Mg, N₁₈₀P₉₀K₆₀+karbamid (15 kg/ga)+ MIKROMIX, N₁₈₀P₉₀K₆₀+karbamid (15 kg/ga)+ MONBAND NPK 20-20-20+TE variantlarida o'tkazildi.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, elita maydonlarida o'simliklarni ma'danli o'g'itlar bilan N₁₈₀P₉₀K₆₀ kg/ga me'yorda oziqlantirish kuzgi bug'doyning Farboma navi urug'lik sifatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi natijasida nazorat (o'g'itsiz) yetishtirilgan urug'likka nisbatan l-reproduksiyada o'rtacha 0,3 dona ko'proq mahsuldor poyalari, 2,1 dona boshqda boshqchalar va ularda 4,3 dona qo'shimcha donlar shakllanishiga olib keldi. Ya'ni nazorat (o'g'itsiz) variantda mahsuldor poyalar soni 2,4 donani, boshqda boshqchalar soni 16,7 hamda ularda 45,8 dona donlar tashkil etgan bo'lsa, mineral o'g'itlar bilan oziqlantirilgan variantda mahsuldor poyalar soni 2,7 donani, boshqda boshqchalar 18,8 dona va ularda donlar soni 50,1 donani tashkil etdi.

O'simliklarni karbamidning 10, 15 va 20 kg/ga me'yorda suspenziyasi bilan ildizidan tashqari qo'shimcha oziqlantirish ta'sirida keyingi reproduksiya o'simliklarida nazorat variantga nisbatan 0,1 dona ko'p mahsuldor poyalar hosil bo'lishi aniqlandi.

O'rganilgan karbamid me'yorlari bo'yicha variantlar o'rtasida farq kuzatilmadi. Masalan, kuzgi bug'doyning Farboma navida elita maydonlarida o'simliklarini umumqabul qilingan o'g'itlar bilan oziqlantirishga qo'shimcha ravishda karbamidning 10 kg/ga me'yori bilan ishlangan variantdan olingan urug'lar ekilganda va 15 va 20 kg/ga suspenziyasi qo'llanilganda bir xil, ya'ni 2,8 dona mahsuldor poya shakllanganligi kuzatildi. Fon variantda esa bu ko'rsatkich 2,7 donani tashkil etdi.

Kuzgi yumshoq bug'doyning boshqqlarida boshqchalar soni va ularda donlar soniga mineral o'g'itlarga qo'shimcha ildizidan

tashqari karbamidning turli me'yorlari bilan oziqlantirishning ta'siri o'rganish natijasiga ko'ra, karbamidning konsentratsiyasi oshib borishi bilan boshqda boshqchalar va ularda donlar soni oshganligi kuzatildi. Masalan, mineral o'g'itlar bilan N₁₈₀P₉₀K₆₀ me'yorda oziqlantirilgan variantda boshqda boshqchalar soni 18,8 dona, donlar soni 50,1 donani tashkil etgan bo'lsa, karbamidning turli me'yordagi suspenziyalari bilan oziqlantirilgan variantdan olingan urug'lar ekilgan paykallarda boshqda boshqchalar soni 19,2-19,7 donani va ularda donlar soni 51,2-53,0 donani tashkil qildi.

Mikroo'g'itlar bilan o'simliklarni qo'shimcha bargidan oziqlantirishning keyingi reproduksiya o'simliklariga ta'sirini o'rganish natijalari asosida bunday ta'sir mikroo'g'it turiga bog'liq ekanligi to'g'risida xulosa qilish mumkin. Masalan, o'simliklarni SEAWEEED Ca+Mg mikroo'g'iti bilan oziqlantirish natijasida keyingi reproduksiya o'simliklari mahsuldor poyalar soni bilan nazorat varianti o'rtasidagi farq 0,2 donani, boshqda boshqchalar soni 0,6 dona, qo'shimcha donlar soni 0,6 donani tashkil etgan bo'lsa, MIKROMIX va MONBAND NPK 20-20-20+TE mikroo'g'itlari bilan oziqlantirish keyingi bo'g'in o'simliklarning mahsuldor poyalar soniga hech qanday ta'sir ko'rsatmadi. Biroq, boshqda boshqchalar soni va don soniga ijobiy ta'siri kuzatildi. Masalan, umumqabul qilingan o'g'it me'yorlari bilan oziqlantirilgan variantga nisbatan, MIKROMIX mikroo'g'iti bilan oziqlantirilgan variantda boshqda boshqchalar soni o'rtacha 0,2 donaga, qo'shimcha donlar soni 0,7 donaga yuqori bo'ldi. MONBAND NPK 20-20-20+TE mikroo'g'itlari bilan oziqlantirilgan variantda bu ko'rsatkichlar muvofiq ravishda 0,4 va 0,9 donani tashkil qildi.

Kuzgi bug'doyning urug'lik paykallarida o'simliklarni N₁₈₀P₉₀K₆₀ kg/ga me'yordagi o'g'itlar bilan birga karbamid hamda mikroo'g'itlar suspenziyasi bilan qo'shimcha oziqlantirish l-reproduksiyada hosil elementlari sonini oshirish imkonini yaratadi. Masalan, bunday variantlardan olingan urug'lar ekilganda o'rtacha 2,8-3,0 dona mahsuldor poyalar, 19,8-21,6 dona boshqda boshqchalar va boshqchlarda 52,9-55,3 dona donlar shakllangan bo'lsa, nazorat variantda bu ko'rsatkichlar 2,7, 18,8 va 50,1 donani tashkil etdi (1-jadvalga).

1-jadval.

Ildizidan tashqari oziqlantirishning kuzgi bug'doy navlari hosil elementlari shakllanishiga keyingi reproduksiyadagi ta'siri, dona/o'simlik hisobida (2021-2023y).

№	Variantlar	Farboma		
		Mahsuldor poyalar soni/dona	Boshqda boshqchalar soni/dona	Boshqda donlar soni/dona
1	Nazorat (o'g'itsiz)	2,4±0,1	16,7±0,8	45,8±2,4
2	N ₁₈₀ P ₉₀ K ₆₀ -fon (umumqabul qilingan me'yor)	2,7±0,2	18,8±0,9	50,1±2,5
3	Fon+karbamid (10 kg/ga)	2,8±0,2	19,2±1,0	51,2±2,7
4	Fon+karbamid (15 kg/ga)	2,8±0,3	19,5±0,9	52,1±2,6
5	Fon+karbamid (20 kg/ga)	2,8±0,2	19,7±1,1	53,0±2,8
6	Fon+SEAWEEED Ca+Mg	2,9±0,2	19,4±1,1	51,8±2,7
7	Fon+MIKROMIX	2,7±0,2	19,0±0,9	50,7±2,8
8	Fon+MONBAND NPK 20-20-20+TE	2,7±0,2	19,2±1,0	51,0±2,6
9	Fon+karbamid + SEAWEEED Ca+Mg	3,0±0,2	21,6±1,2	55,3±2,8
10	Fon+karbamid + MIKROMIX	2,8±0,2	19,8±1,1	52,9±2,6
11	Fon+karbamid + MONBAND NPK 20-20-20+TE	2,8±0,2	20,0±1,0	53,6±2,9

O'rganilgan variantlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich elita maydonlarida o'simliklarni asosiy o'g'itlash bilan birga o'simliklarni karbamid hamda SEAWEEED Ca+Mg mikroo'g'iti bilan qo'shimcha oziqlantirilgan variantdan olingan urug'lar ekilganda olindi. Bu variantda o'rtacha 3,0 dona mahsuldor poya, 21,6 dona boshqda boshqochalar hamda 55,3 dona donlar shakllanganligi aniqlandi. Bu esa nazorat variantiga nisbatan o'rtacha 0,3 dona ko'p mahsuldor poyalar, 2,8 dona boshqda boshqochalar va 5,2 dona qo'shimcha donlar hosil bo'lishiga erishilganligi jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkin.

Xulosa shuki, olingan natijalar kuzgi bug'doyni $N_{180}P_{90}K_{60}$ me'yorda asosiy o'g'itlarga qo'shimcha ravishda o'suv davrida 15 kg/ga karbamid va SEAWEEED Ca+Mg mikroo'g'iti suspenziyasi bilan oziqlantirish ekinning urug'lik sifatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi orqali kuzgi yumshoq bug'doyning Farboma navining muhim hosil elementlaridan bo'lgan mahsuldor poyalar sonining 0,3 donaga, 2,8 dona boshqda boshqochalar va ularda 5,2 dona qo'shimcha donlar soning ko'payishiga, ya'ni keyingi reproduksiya o'simliklarining biometrik ko'rsatkichlari yuqori o'simliklarning shakllanishiga yordam beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Abdukarimov D.T. Dala ekinlari xususiy seleksiyasi. /Samarqand: 2018 y. 418-b.
2. Bo'riyev.X.Ch., Do'simurodova.S. Qishloq xo'jalikekinlari urug'shunoslighi. Mehnat. Toshkent. 2000-y.-B 12-22.
3. Овчинников А.С., Борисенко И.Б., Плескачев Ю.Н. Программирование сельскохозяйственных культур при возделывании их с применением инновационных технологии изд. /ГСХА, Волгоград 2011-г. –С 38-50.
4. Toshkentboyeva.F.I. Ildizidan tashqari oziqlantirishning Farboma navi hosildorligi va don sifat ko'rsatkichlariga ta'siri.// Agro-Ilm jurnali 2023-y №-2. B 15-16.
5. Toshkentboyeva.F.I. Kuzgi bug'doy hosildorligi, don sifati va urug'larning ekinboplik ko'rsatkichlariga ma'danli o'g'it me'yorlari va bargidan qo'shimcha oziqlantirishning ta'siri.// "Agrobiotexnologiya va veterinariya tibbiyoti" ilmiy jurnali. 2022-y 14-15-oktyabr. B 1083-1087.
6. Toshkentboyeva.F.I. Influence of cultural fertilizers and additional feedings on the production indicators of winter wheat varieties.// International Conference on Advance Research in Humanites, Applied Sciences. 2023-y. Feb 28th.. 10 th-ICARHSE. <https://conferencea.org>.
7. Yakubov O., Tursunov S., Muqimov J., DONCHILIK. //Toshkent. Yangi asr avlodi 2009-y.-B 266-268-271.

UO'T: 633.11: 631.51

KUZGI BUG'DOYNING «HISORAK» NAVINING MAHSULDORLIK KO'RSATKICHLARIGA EKISH VA O'G'IT ME'YORLARINING TA'SIRI

Qarshiyeva Umida Shukurovna, qishloq xo'jaligi fanlari doktori (DSc),
Karimov Abduxolik Abdullayevich, mustaqil tadqiqotchi,
Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti

Annotatsiya. Respublikamizda oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlashda boshqqli don ekinlari, jumladan yumshoq bug'doy hosildorligi va don sifatini oshirish, tezlash, noqulay tashqi muhit omillariga chidamli bo'lgan navlarni yaratish bugungi kundagi g'allachilikning eng muhim ahamiyatga molik vazifalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunga kelib O'zbekiston g'alla mustaqilligiga erishib, uni eksport qiluvchi sanoqli mamlakatlar qatoriga kirdi. Qishloq xo'jaligida don hosildorligini oshirish borasida keng qamrovli chora-tadbirlar tizimli amalga oshirilishi evaziga Respublikamizda 2019 yilda 8 mln. 377 ming tonna, 2021 yilda 6 mln. 656 ming tonna don hosili olingan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich material, mahsuldorlik, kuzgi bug'doy, nav namuna, gullarni bichish.

Аннотация. В мире пшеница (*Triticum aestivum* L.) основную продовольственную культуру, производство и потребность которой возрастает параллельно. По данным ФАО общее производство зерна по всему миру составляет 2 млрд 450 тыс. тонн, из которых на долю зерновых приходится 2 млрд 194 тонн (пшеница, рожь, ячмень, овес, тритикале, рис, кукуруза, просо, гречиха), а зернобобовых культур 256 млн. тонн зерна. Научно-исследовательские работы направлены на создание высокоурожайных сортов, с высоким качеством зерна, устойчивых к болезням, вредителям и полеганию, а также к неблагоприятным условиям среды используя при этом гены контролирующие короткостебельность мягкой пшеницы, что имеет научно практическое значение.

Ключевые слова: исходный материал, урожайность, озимая пшеница, сортообразец, кастрация.

Annotation. In the world, wheat (*Triticum aestivum* L.) is the main food crop, the production and demand of which are increasing in parallel. According to FAO, the total grain production worldwide is 2 billion 450 thousand tons, of which cereals account for 2 billion 194 tons (wheat, rye, barley, oats, triticale, rice, corn, millet, buckwheat), and legumes 256 million. tons of grain. Research works are aimed at creating high-yielding varieties, with high grain quality, resistant to diseases, pests and lodging, as well as to unfavorable environmental conditions using genes controlling the shortness of soft wheat, which is of scientific and practical importance.

Key words: Initial material, selection, shear-wheel wheat, winter wheat, early ripeness, creating varieties.